

## CHET TILLARINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.

**Maxmudova Maxarram Sharof qizi**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Fizika va Texnologik ta'lim fakulteti  
Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

**Annontatsiya:** *Hozirgi kundagi yosh avlod uchun xorijiy tillarni o'rganishi ularning kelajakdagi mavqei va O'zbekistonga qo'shishi kerak bo'lgan hissalar haqida va xorijiy tillarni hozirgi kundagi rivojlanish darajasi yosh avlod uchun til o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Innovatsion texnologiyalar, metod, kompleks tizim, lingafon kabinetlari, o'yin, intensiv.*

Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt-soati keldi." - deydi o'zlarining ma'ruzalarida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O'zbekistonning har bir yetishib kelayotgan yosh avlod hech kimdan kam bo'lmagan, dunyo ta'lim standartlari darajasiga to'liq javob bera oladigan yetuk bilimli-ilmli bo'lishi shart va bunga jon-jahdimiz bilan kirishishimiz kerak. Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliztilini o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilde gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlari yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. Qayd etib o'tilgandek mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim To'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillariga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikasining jahon hamjamiyatiga yanada yo'naltirilgan tizim yaratildi. Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikning oshishiga yordam bera oladi. Misol uchun mashg'ulot davomida chet tildagi video rolikni ko'rish orqali o'rganuvchining eshitish ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanadi. Ba'zi bir hollarda esa videolar uchun berilgan izohlar ularning yozish, o'qish va hattoki gapirish ko'nikmalarini o'stirishida ham yetarlicha o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday hollarda biz kompyuter, magnitafon, proyektor, CD disklar va kassetalardan foydalanishimiz mumkin. Bundan tashqari dars davomida zamonaviy metodlar ham talaba-o'quvchilarning chet tilini o'rganishda ancha yengilliklar yaratadi. Shu o'rinda "klaster", "baliq skeleti",

"venn diagrammasi" , "rolli o'yinlar", "aqliy hujum", "savol-javob" kabi metodlarni aytib o'tishimiz lozim. Har bir metodning qo'llanilishida alohida talaba-o'quvchilar uchun chet tilini osonroq o'rganishda yengillik yaratib beruvchi omillari mavjud. Masalan, aqliy hujum metodini olsak, bu metod talabani tezroq fikrlashiga va nutqini o'stirishga juda ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bir birlari bilan fikr almashish orqali ham dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan taminlash yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida 2013/2014 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha hududlarda chet tillarni, asosan ingliz tilini o'rganish umum ta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida ikkinchi sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan boshlanadi. Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir necha yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilandi. O'zbekistonning ochiqlik siyosati, turizmni rivojlantirish, dunyo bozoriga shahdam qadam-la faol kirib borishi, barcha sohalarda hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni o'rganishga katta ehtiyoj tug'diradi. Xorijiy mahalliy hamkorlar bilan aloqalar o'rnatib, ularning moliyaviy, tashkiliy va uslubiy ko'magini mamlakatda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga jalb qilishni tashkil etadi. XX asrda chet tillarini o'qitish metodi.

1. Grammatika-tarjima metodlari.
2. Bevosita ta'lim metodi.
3. Eshitish-gapirish metodi.
4. So'zlashuv-holat metodi.

Masalan: ingliz tilida gaplashish ya'ni "speaking" uchun 3 ta narsa kerak. 1.Gap tuzish formulalari. 2.Eng kerakli grammatika mavzulari. 3.Speaking savollari. Ingliz tilida gap tuzish: 1) simple 2)complex 3)compound 4)complex compound. Chet tili darslarining o'itilishi jarayonida ilg'or

pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot – kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, Grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

— kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video rolidlarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

— chet tilidagi radio eshittirishlar va televidenedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

— ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;

— CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida

undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muminova, F. M. Ingliz tilini oqitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

2..O'.Hoshimov, I Yoqubov "Ingliz tili oqitish metodikasi"(oquv qollanma) Toshkent "Sharq "nashriyoti 2003

3.. New Fly High 5 (o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). 2017

4.. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.

5.. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ УЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АДАМИЯТИ.